

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlarini qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

O'ZBEK VA JAHON TILSHUNOSLIGIDA ORNITONIMLARNING O'RGANILISHI XUSUSIDA

ОБ ИЗУЧЕНИИ ОРНИТОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ И МИРОВОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

ABOUT THE STUDY OF ORNITONYMS IN UZBEK AND WORLD LINGUISTICS

Maxmudova Nargiza Ravshanovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchisi

Annotatsiya

O'zbek va jahon tilshunosligida turli tizimli tillardagi ornitonim komponentli lisoniy birliklarni qiyosiy o'rganish, til birligi va ornitonim sifatida so'zning leksik-semantik va tilda tizimli tuzilishini o'rganish, qush nomlarini ifodalovchi lingvistik birliklarni milliy-madaniy nuqtayi nazardan, shuningdek, ularni frazeologik birliklar komponentlari sifatida qush nomlarining semantik, sintaktik va struktur jihatdan tadqiq etilishi haqida tahlil etilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются сопоставительное изучение языковых единиц с компонентом орнитонимом в разных языках, изучение лексико-семантической и структуры слова как языковой единицы и орнитонима, языковых единиц, представляющих названия птиц из национального с культурологической точки зрения, а также анализируются на семантическом, синтаксическом и структурном исследовании названий птиц как компонентов фразеологизмов в узбекском и мировом языкознании.

Abstract

A comparative study of linguistic units with an ornithonym component in different systematic languages, a study of the lexical-semantic and systematic structure of the word as a linguistic unit and an ornithonym, linguistic units representing bird names from a national-cultural point of view, as well as they are analyzed on semantic, syntactic and structural research of bird names as components of phraseological units in Uzbek and world linguistics.

Kalit so'zlar: *til, lingvistika, semantika, pragmatika, ornitonim, tahlil, qiyos, leksema, ma'no,*

Ключевые слова: *язык, языкознание, семантика, прагматика, орнитонимы, лексема, анализ, значение*

Key words: *language, linguistics, semantics, pragmatics, ornithonyms, analysis, comparison, lexeme, meaning.*

KIRISH

Bugungi kunda tilshunoslik sohasida jadal rivojlanishlar bo'lmoqda. Yangilanishlar natijasida tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar va neologizmlar soni ortib bormoqda. Bu jarayon esa o'z navbatida soha mutaxassislarining o'z kasbiga oid tushunchalar va terminlarning aniq ifodasini bilishlarini, ularning mazmun-mohiyati haqida to'laqonli bilimga ega bo'lishlarini taqozo etmoqda. Shu bilan birga turli tizimli tillarda muayyan leksema, frazeologik birliklarning shakllanishi, rivoji va taraqqiy etishi hamda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida mutaxassislar tomonidan keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, ornitonimlarning tilda frazeologik birlik, yoki semema shaklini tadqiq etish, tilda foydalanish ahamiyatini o'rganish dolzarbligini yo'qotmagan va ayni paytda o'z yechimini kutmoqda. Tilda olimlar hayvonlar nomlariga bog'liq bo'lgan zoonim tushunchasini turlicha talqin etganlar. Shu ma'noda *ornitonim* tushunchasi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslarni, balki boshqa soha mutaxassislarini ham birdek o'ziga jalb qilmoqda va dolzarb masalalardan biri sifatida ilmiy jamoatchilik e'tibor markazida bo'lmoqda.

Hozirgi davr tilshunosligida qush nomlari bilan bog'liq tushunchalarni mazmuniy maydon sifatida o'rganish, ushbu lug'aviy qatlamning tipologik tasnifini amalga oshirish hamda ularni o'zaro integral va differensial jihatlarini tadqiq etish ahamiyatlidir.

Dunyo tilshunosligida V.Merey, G.K.Kazakbalasi, V.S.Moem, J.Oke, R.Makdonld, C.Atay, Bayat prof. Dr. Ah haydar, R.Bilgener va boshqa ko'plab tilshunos olimlarning asarlari turli tizimli tillardagi ornitonim komponentli lisoniy birliklarni qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan.

Til birligi va ornitonim sifatida so'zning leksik-semantik va tilda tizimli tuzilishini o'rganishda M.Myager, L.F.Moiseyeva, O.A.Rijkina, M.Isayev, Z.G.Murkelinskaya, E.A.Nagornina, Z.R.Sadikova kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlariniolib bordilar. Qushlar nomlarini ifodalovchi lingvistik birliklarni milliy-madaniy nuqtayi nazardan, shuningdek, ularni frazeologik birliklar

komponentlari sifatida N.D.Pimenova, S.G.Gadjiyeva, G.M.Vishnevskaya, T.V.Fedorova kabi olimlar tadqiq etganlar.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham zoonimlar bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar maydonga keldi. T.Z.Zoxidova, D.X.Bazarova, N.Abduraxmonov, D.B.Yo'ldasheva, D.A.Tosheva kabi olimlar qush nomlarining semantik, sintaktik va struktur jihatdan tadqiq etdilar.

MATERIALLAR AND METHODLAR

Til tarkibi, tilning so'z boyligi jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarga uchraydi. Bunda qushlarga tegishli bo'lgan barcha ifodalarni uslubiy o'rganiladi. Qushlarning tashqi ko'rinishi, yashash tarzi, sayrashi kabi xususiyatlaridan kelib chiqib turli til birliklari qo'llaniladi. Xususan, tadqiqotda tahlil uchun asos bo'lib xizmat qiladigan qush nomlari qatnashgan turli matnlar va frazeologik birliklar o'rganilgan.

Zoonimlarni o'rganishda turli xil yondashuvlar va yo'nalishlar bilan tadqiqotchilar zamonaviy tilning frazeologik zoonimlarining semantikasida antropotsentriзмning umumiy tendensiyasi, shuningdek, hayvon nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarning tarqalishi va bunday holatlar jahondagi juda ko'p tillar uchun universalligidan kelib chiqadi. Dunyo tillarida ular insonning majoziy xususiyati sifatida faol qo'llaniladi, chunki bunday birliklar yuqori konnotativ salohiyatga egaligi bilan tilshunoslar e'tiborini o'ziga tortadi. So'nggi yillardagi tadqiqotlarda frazeologik zoonimlar kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilmoqda. Masalan, ayrim izlanuvchilar tomonidan metaforizatsiya jarayonlari va bilimlarni bir sohadan boshqasiga turli tillarda qo'llanilishining kognitiv modellari taqqoslangan, dunyo tillarida aks etuvchi leksik va frazeologik birliklari qismlari o'rtasidagi asosiy farqlar aniqlangan.

Qushlarning nomlarini birlashtiruvchi semantik guruhi tarixan nisbatan ochiq tuzilishga ega bo'lib, bunda atamalar tilda yo'q bo'lib ketishi yoki yangilari bilan almashtirilishi mumkin. Qushlar haqidagi dastlabki adabiyotlardagi bitiklar ilmiy jihatdan emas, balki badiiy tomondan tasvirlangan. Lekin ornitologiyaning maqsadi qushlarni ilmiy o'rganish sanaladi. Qushlar terminologiyasining mavzusi ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning turli tillarda o'ziga xos nomlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, qushlarning nomlanishini semantik, etimologik, lingvistik-geografik va boshqa jihatlari tadqiq bo'yicha izlanishlar mavjud.

Badiiy matnda qushlar nomi bilan bog'liq tasviriy vositalar ham ko'p uchraydi. Ayniqsa, nazmiy asarlarda metafora, metonimiya va qushlar nomi bilan bog'langan tasviriy vositalar, sinekdoxalarga misollar topish mumkin. Metonimiya nomdoshlanuvchi va nomdoshlovchi narsa o'rtasidagi aloqadorlikka xosdir.

Qushlar adabiyotda xuddi shunday qadim zamonlardan beri paydo bo'lgan. Bo'ri va turna, Tulki va laylak kabi ertaklarda inson xatti-harakatlari haqida axloqiy xulosalar chiqarish uchun qush nomlari — ornitonimlardan foydalaniladi.

Qush tasviridan foydalanish hattoki ba'zi mashhur rassomlar tomonidan tasvirlangan asarlarda ham paydo bo'lgan.

Qushlar bolalar kitoblarining mashhur qahramonlari bo'lib, ular ko'pincha chiroyli tasvirlangan. Ingliz yozuvchisi Beatriks Potterning 1908 yildagi "Jemima Puddle-Duck" haqidagi ertak asari mashhur qush qahramoni (o'rdak)ni yaratdi. Boshqa mualliflar turli yoshdagi bolalar uchun kitoblarda ko'plab qush qahramonlari bilan ergashdilar.

Kattalar uchun kitoblarda qushlar ramziy yoki psixologik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Amerikalik yozuvchi Pol Gallikoning 1940 yilda chop etilgan Qor g'oz, O.Dyunker tarjimasida asosida mazkur asar urush davridagi do'stlikning qayta tiklanadigan kuchi haqidagi masal bo'lgan. G'oz ornitonimi bosh qahramonni ham, urushdan yaralangan dunyoni ham ramziy tasviri sifatida ishlatilgan.

So'zlarning semantikasi shaffof bo'lgani uchun ba'zi holatlarda turtki beruvchi omillar aniq bo'ladi. Lug'aviy birliklarning semantikasi va tuzilishi turlarning asosiy jihatlari hisoblanadi.

O'zbek tilidagi qush nomlarining ma'lum qismi tub, sodda so'zlar bo'lsa, asosiy qismi soddalashish va yaxlitlanish asosida vujudga kelgan. Masalan, o'zbek tilida *ukki*, *to'rg'ay*, *kakku*, *burgut*, *chumchuq*, *shunqor*, *o'rdak*, *qirg'iy* singari yuzlab ikki va undan ortiq bo'g'inli ornitonimlar mavjud. V.Dal tomonidan rus tilida qushlar nomlari asosida tuzilgan lug'atida ularning semantik hamda struktur tavsifi keltiriladi. Ushbu lug'atda ko'rsatilishicha, rus tilida ham qush nomlari ifodalanishida bir bo'g'inli nom mavjud emas, barchasi ikki va undan ortiq bo'g'inlidir. Bu kabi faktlar o'z navbatida turli tizimli tillarda qush nomlarini chog'ishtirib o'rganishda asos bo'ladi. Ingliz tilida ham qush nomlari o'rganilishi ornitonimlar deb yuritiladi. Qadimgi yunon tilidan ὄρνιθ- (*ornith-*

), (*órnis*, “bird”) qush, *ornitho* — *esa, qushga qaratilgan yoki aloqador hamda óvumα (ónuma)* nom soʻzlaridan kelib chiqqan. Yaʼni ornitonim “qush nomi” degan maʼnoni anglatadi.

Garchi, bunday nomlarning lingvistik jihatdan tadqiq etilishi hozirgi tilshunoslikda dolzarb masala deb qaralmasa-da, ingliz va oʻzbek tillarida qiyosiy tahlillarida markaziy tadqiqot mavzusi sifatida dolzarblik kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Qush nomlarining lingvistik tadqiqi uchun quyidagi taʼrif juda ahamiyatlidir. Ingliz tilida: “A *Bird is animal covered in feathers, with two wings for flying and hard pointed mouth called a beak. Birds build nests, in which female birds lay eggs. Birds are an essential part of nature; some birds fly, some don’t, some have long beaks, others not.*” Oʻzbek tilida esa, “Qush- patlar bilan qoplangan hayvon boʻlib, uchish uchun ikkita qanoti va qattiq uchli ogʻiz tumshugʻli jonzotdir. Qushlar uya quradilar, ularda urgʻochi qushlar tuxum qoʻyadilar. Qushlar tabiatning ajralmas qismidir; baʼzi qushlar uchadi, baʼzilari uchmaydi, baʼzilarining tumshuqlari uzun, boshqalari esa yoʻq.” Mazkur taʼrif ingliz tilining Macmillan lugʻatidan tarjima qilinganda, qushlar nomlarini oʻrganishda ularning tashqi koʻrinishga xos xususiyatlar qaysidir maʼnoda ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalarini lingvistik jihatdan tadqiq qilgan qator izlanuvchilarning ishlarida ornitologik birliklar ham tahlilga tortiladi. Masalan, I.Umarov jahon va oʻzbek tilshunosligida ornitonimlar maʼlum darajada tadqiq qilingani haqida fikr yuritir ekan: “Lekin ushbu mulohazani xalq dostonlari tiliga, xususan, “Malika ayyor” dostoni leksikasiga nisbat berib boʻlmaydi. Ayni holni hisobga olib, bu oʻrinda, doston leksikasidagi *bulbul, qargʻa-quzgʻun, laylak, musicha, jinqarcha, murtolibacha, mayna, toʻti, gʻoz, shunqor, soʻna-suqsur* kabi xilma-xil qush nomlari – ornitonimlar haqidagi kuzatishlarimizni qisqacha berishni lozim topdik”.

Rus tilshunosligida qush nomlari tadqiqi oʻtgan asrning 70-yillaridan lingvistlar eʼtiborini oʻziga jalb qilib kelgan. M.Ginatullin tomonidan qush nomlari misolida leksik birliklar motivatsiyasi masalalarini, L.F.Moiseyeva tomonidan rus tilidagi qushlar nomlarini, G.Levina tomonidan rus xalq shevalarida qushlarning nomlanishi, L.Gusev tomonidan folklor matnlarida ornitonimlarning qoʻllanish xususiyatlari monografik planda tadqiq etilgan.

XULOSA

Shunday qilib, qushlarning nomlanishini semantik, etimologik, lingvistik-geografik va boshqa jihatlarini tadqiqi boʻyicha izlanishlar mavjuddir. Tilshunoslikda ornitonimlar tadqiqi boʻyicha qator ilmiy izlanishlar mavjud boʻlib, bugungi kunda yanada tadqiqotlar olib borilmoqda. Ornitonimlarni qiyosiy oʻrganish tilning lugʻat tarkibiga asoslangan holda, tillarning semantik, pragmatik hamda linvokulturologik xususiyatlarni tadqiq etishga xizmat qiladi. Ornitonimlar shu tilda soʻzlovchi xalqning lisoniy madaniyati, dunyoqarashi va munosabatini oʻzida aks ettiradi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Пол Гэллик: Белая гусыняThe Snow. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
2. Tosheva D.A. «Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari», falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avt. T.D.Oʻ T va AU.
3. Йулдашева Д.Б. Ўзбек тилида орнитонимларнинг лисоний тадқиқи, ф. Ф. б.ф доктори (PhD) дисс.авт, Самарқанд – 2019, 52 бет
4. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка / В. И. Даль. — Москва : Русский язык, 1989. — Т. I. — 699 с.(244)
5. Maxmudova, N. (2021). LEXICAL-SEMANTIC GROUP OF ORNITHONYMS IN LANGUAGE AND THEIR USE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(5), 107-116.
6. Maxmudova, N. (2021). BIRD NAMES REALLY MATTER: FEATURES OF ORNITHONYMES IN LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 116-118
7. Cambridge English dictionary.
8. Жумаев А.А. Ўзбек ва немис эртақларида қушлар образи типологияси ҳамда спецификаси. Филолог. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Авторефер. Бухоро, 2022. – 25-б.
9. Ўзбек тилининг фразеологик луғати, [Раҳматуллаев Ш.](#), Қомуслар Бош таҳририяти – Toshkent, 1992.
10. Левина Г. М. Наименования птиц в русских народных говорах. Авторефер. дисс.... канд. филолог. наук. – Ленинград, 1976. –24 с.
11. Гусев Л. Ю. Орнитонимы в фольклорном тексте. Авторефер. дисс.... канд. филолог. наук. – Курск, 1996. – 23 с.